

KICHIK YOSHDAGI BOLALARGA (O'QUVCHILARGA) XORIJ TILLARINI INTERFAOL USULDA O'RGATISH

O'roqova Malika Raxmiddinovna

*Samarqand davlat chet tillari instituti Ingliz tili 2 fakulteti
Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda ingliz tili yo'nalishi
2-bosqich talabasi*

Ilmiy rahbar: N.N.Zubaydova

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha bo'lgan bolalarning va boshlang'ich sinf o'quvchilarning til o'rganishiga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish uchun xorij tillarini samarali, zamonaviy yo'llar ya'ni interfaol usullar bilan tushunarli va oson o'rgatish usullari aytib o'tildi.

Kalit so'zlar: innovatsion ta'lim metodlar, pedagogik texnologiyalar, ko'rgazmali qurollar, o'yinlar va tarqatma materiallar.

Hozirgi kunda chet tilini o'rganishga bo'lgan talab kuchaymoqda va ortib bormoqda. Kichik yoshdagi bolalarga xorij tillarini turli xil innovatsion va interfaol usullar, ko'rgazmali qurollar va tarqatma materiallar orqali o'rgatilsa ular tez va oson mavzuni tushinib olishi mumkin va o'quvchilarda mantiqiy, tanqidiy mustaqil fikrlashni shakllantirishga yordam beradi. Darslarda ko'rgazmali va tarqatmali materiallardan foydalanishdan maqsad o'quvchilarning mavzuni o'rganishlarida ularning diqqati to'plash, darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, o'zlariga bo'lgan ishonchini rivojlantirish shu bilan birgalikda ko'rgazmalilik va tarqatmalilik asosida ularning bilim malakasi va ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

Pedagogik texnologiyalar - bu aniq ketma - ketlikdagi yaxlit jarayon bo'lib, u o'quvchilarning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Boshlang'ich sinfdagi o'quvchilarga chet tilini o'rgatish qiyin va mas'uliyatli vazifalardan biri hisoblanadi. Ularga chet tilini mazmunli va qiziqarli o'rgatish uchun quyidagi usullardan foylanish yaxshi natija beradi. Ko'rish orqali eslab qolish, Multfilmlar orqali o'rgatish, Pantomima, Picture dictation (rasmi diktant).

Ko'rish orqali eslab qolish usuli. Ba'zi bir o'quvchilar eshitgan ma'lumotlaridan narsalaridan ko'ra ko'proq ko'rgan narsalarini eslab qoladi. Darsni turli xil ko'rgazmali qurollar, plakatlar orqali, ko'zga ko'rinadigan va kundalik hayotda ko'p ishlatiladigan narsa, buyumlarga yozish orqali yangi so'zlarni o'rgatish va o'rgangan yangi so'zlari ishtirokida gaplar tuzish foydali yo'l hisoblanadi. Masalan, kitob (book), stol (table), doska (blackboard), ruchka (pen), oyna (window) va shu kabilar yozish orqali o'rgatsa bo'ladi. Natija bu so'zlarni ular ixtiyorsiz ya'ni o'zlari bilmagan tarzda o'rganishadi.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILI O'QITISHNING INNOVATSION USULLARI – тема научной статьи по языкознанию и литературоведению читайте бесплатно текст научно-исследовательской работы в электронной

библиотеке КиберЛенинка <https://cyberleninka.ru/article/n/boshlangich-sinflarda-ingliz-tili-oqitishning-innovatsion-usullari>¹439 – 440 betlar].

Multfilmlar orqali o'rgatish usuli. Bolalar turli xil multfilmlar ko'rishga qiziqishadi. Ingliz tilidagi multfilmlarni ko'rish orqali, multfilmdagi gaplarni so'zlarni tushunmasa-da, multfilm qahramonlarining harakatlari xarakterlari orqali ular ishlatayotgan so'zlarni tushunishga harakat qiladi va intiladi. Bu kichik yoshdagi bolalar uchun qiziqarli va til o'rganishlari uchun foydalidir.

“Pantomima”(pantomime) usuli. Bu usul shundan iboratki, o'qituvchi biror bir mavzuga oid so'zlarni tanlaydi. Masalan, mavzu “Animals”(hayvonlar) bo'lsa doskaga bir o'quvchi chiqadi o'qituvchi o'sha o'quvchiga hayvonlardan birini aytadi uni sinf xonadagi o'quvchilar eshitmasligi kerak. Keyin u o'quvchi o'sha aytilgan so'zni imo-ishoralar bilan ko'rsatadi, qolgan bolalar o'sha so'zni (hayvonni) topishi va inglizcha nomini aytishga harakat qilishi kerak bo'ladi. Bu usul ham bolalarning til o'rganishiga bo'lgan qiziqishini oshirib, yaxshi natija berishi mumkin.

Picture dictation (rasmi diktant) - bu metoddan foydalanishning asosiy maqsadi kichik yoshdagi bolalarni darsga bo'lgan e'tiborini jalb qilish va o'quvchilarga kayfiyat ko'tarish uchun ham foydalanadi. O'yin sharti quyidagicha boshlanadi. O'quvchilar 3 guruhga bo'linadi, har bir guruh o'quvchilarga kartochkalarda turli xil mavzular bo'yicha so'zlar yozilgan bo'ladi. Har bir kartochkada 5 ta inglizcha so'zlar yozilgan bo'ladi. Har bir guruhdan bittadan o'quvchi chiqib, ushbu so'zlarni doskaga rasmini chizadi. Qolgan o'quvchilar chizilgan rasmga qarab so'zlarni inglizcha aytishadi. Masalan, (ball-koptok, tree-daraxt, mountain-tog'). Shunday holatda aytiladi. Eng qisqa vaqt ichida va eng ko'p topgan guruh o'quvchilar g'olib bo'ladi va rag'bat kartochkasi bilan taqdirlanadi.

Xulosa qilib aytganda, kichik yoshdagi bolalarga xorijiy tillarini bir necha xil zamonaviy usullar, o'yinlardan foydalangan holda qiziqarli mashg'ulot tarzida o'rgatish darsning samaradorligini oshiradi. Agar shunday interfaol metodlar bilan bolalarga tushunarli, aniq o'rgatilsa ularning kelajakdagi bilimlari uchun poydevor va mustahkam manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILI O'QITISHNING INNOVATSION USULLARI – тема научной статьи по языкознанию и литературоведению читайте бесплатно текст научно-исследовательской работы в электронной библиотеке КиберЛенинка <https://cyberleninka.ru/article/n/boshlangich-sinflarda-ingliz-tili-oqitishning-innovatsion-usullari>²439 – 440 betlar].
2. <https://azkurs.org/nizomiy-nomidagi-toshkent-davlat-pedagogika-universiteti-fizik-v2.html?page=14>
3. Arxiv uz sayti.